IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR HAYOTIDA TA'LIM TIZIMI VA SIFATINI YAXSHILASH

Toyirov Alibek Hamdam o'g'li
Usmonov Ozodbek Ulug'bek o'g'li
Abdulxodiyev Umidjon Shokirjon o'g'li
Xujayorova Ibodat Ulug'bek qizi
Alibektoyirov05@gmail.com
Jumaniyazova Zulfiya Aitbayevna
CHDPU Pedagogika fakulteti Maxsus pedagogika kafedrasi o'qituvchisi
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0005-2967-8629
https://doi.org/10.5281/zenodo.18212127

Annotatsiya: Mazkur maqolada imkoniyati cheklangan bolalar hayotida ta'lim tizimini takomillashtirish va ta'lim sifatini oshirish masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Inklyuziv va integratsiyalashgan ta'lim yondashuvlarining mohiyati, ularning bolalarning ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy rivojlanishiga ta'siri ochib berilgan. Shuningdek, pedagogik qo'llab-quvvatlash, zamonaviy texnologiyalar va oila-maktab hamkorligining ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, integratsiyalashgan ta'lim, imkoniyati cheklangan bolalar, ta'lim sifati, ijtimoiy moslashuv, pedagogik qo'llab-quvvatlash

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of improving the education system and enhancing the quality of education for children with disabilities. It explores the essence of inclusive and integrated education approaches and their impact on children's social adaptation and personal development. In addition, the importance of pedagogical support, modern technologies, and cooperation between family and school is substantiated.

Keywords: inclusive education, integrated education, children with disabilities, quality of education, social adaptation, pedagogical support

Аннотация: В данной статье представлен научно-теоретический анализ вопросов совершенствования системы образования и повышения качества образования детей с ограниченными возможностями. Рассматривается сущность инклюзивного и интегрированного подходов к образованию, а также их влияние на социальную адаптацию и личностное развитие детей. Кроме того, обосновывается значение педагогической поддержки, современных технологий и сотрудничества семьи и школы.

Ключевые слова: инклюзивное образование, интегрированное образование, дети с ограниченными возможностями, качество образования, социальная адаптация, педагогическая поддержка

Asosiy qism:

Zamonaviy ta'lim tizimida barcha bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun sifatli ta'limni tashkil etish ularning nafaqat bilim olishiga, balki jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga xizmat qiladi. Shu bois ta'lim tizimini takomillashtirishda inklyuzivlik tamoyillariga asoslanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Inklyuziv ta’lim — bu barcha bolalarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ularni bir xil ta’lim muhitida o‘qitishni nazarda tutadi. Mazkur yondashuv bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi, bag‘rikenglikni shakllantiradi hamda o‘zaro hurmat muhitini yaratadi. Integratsiyalashgan ta’lim esa qo‘shimcha pedagogik yordam orqali ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ta’lim sifatini oshirishda pedagoglarning kasbiy kompetensiyasi muhim omil hisoblanadi. O‘qituvchilar innovatsion metodlardan foydalanishi, darslarni differensial yondashuv asosida tashkil etishi zarur. Bundan tashqari, psixolog, logoped va defektolog kabi mutaxassislar bilan hamkorlik qilish ta’lim samaradorligini yanada oshiradi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyati cheklangan bolalar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Elektron resurslar, maxsus dasturlar va interaktiv platformalar ta’lim jarayonini moslashtirishga yordam beradi. Bu esa bolalarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Shu bilan birga, mavjud muammolarni ham e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Pedagog kadrlar yetishmasligi, moddiy-texnik bazaning zaifligi va ijtimoiy stereotiplar ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun tizimli islohotlar amalga oshirilishi zarur.

Prezident tomonidan 13-oktabr 2020-yilda “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim – tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to’g’risida” gi PQ-4860-son qarori qabul qilindi. Bu hujjat Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasida e’lon qilingan va 2020-yil 14 – oktabrdan kuchga kirgan. Hujjatga ko’ra 2020-2025-yillarda Xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi va 2020-2021 yillarda uni amalga oshirish bo’yicha “Yo’l xaritasi” tuzib chiqiladi. Bu konsepsiya 2 bosqichda amalga oshirish rejalashtirilgan bo’lib, 1- bosqichda (2020-2022-yillar) inklyuziv ta’limni yo’lga qo’yish uchun shart-sharoitlar yaratish, bu bo’yicha mutaxassislarni tayyorlash, ijtimoiy, normativ bazani yaratish, jihozlash va zarur o’quv qurollari bilan maktablarni ta’minlash nazarda tutilgan.

2- bosqichda (2023-2025-yillar) inklyuziv ta’lim tizimini bosqichma-bosqich umumiy o’rta ta’lim muassasalarida joriy etish, bu bo’yicha chora – tadbirlarni amalga oshirish kabilar.

Inklyuziv ta’lim – bu maxsus ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma – xilligini hisobga olgan holda barcha tahsil oluvchilar uchun ta’lim muassasalarida ta’lim olish imkoniyatini teng ravishda ta’minlashdir. Ushbu qonun imkoniyati cheklangan bolalarga tengdoshlari bilan teng ravishda ta’lim olish imkonini beradi.

Inklyuziv ta’lim tizimi bosqichma-bosqich ayrim maktablarda sinov tariqasida yo’lga qo’yiladi va ijobiy natija va tajribalar keyinchalik respublikaning boshqa hududlaridagi maktablarida tadbiq etiladi. Shuningdek, o’quvchilarni kasb-hunarga yo’naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi qoshida “Inklyuziv ta’lim laboratoriyasi” tashkil etiladi.

Inklyuzi ta’limni joriy etishda boshqa davlatlarning tajriba va yutuqlaridan foydalanish, yaxshi natijalarga erishish uchun zamin bo’la oladi.

Misol uchun, Amerika davlatlarida nogironligi bo’lgan bola tug’ilsa, uni tug’ilganidan boshlab ijtimoiy hayotga moslashtirish, avvalo maktabgacha ta’lim bosqichiga, so’ngra maktab, kollej va universitetlarda tahsil olishiga erishish va amalga oshirish uchun mutaxassislar, nevropatolog, psixolog, nogironlik turiga qarab logoped, oligofrenopedagog yoki tiflopedagog biriktiriladi. Bu mutaxassislar bola hayotining dastlabki kunlaridan boshlab bola bilan shug’ullanishadi va uni bog’chaga (ijtimoiy muhitga) har tomonlama moslashtirib borishadi.

Bog'chada ishlaydigan maxsus pedagoglar imkoniyati cheklangan bolani maktabga tayyorlashadi. Natijada bunday bolalar inklyuziv ta'limga tayyor holatda, oddiy maktablarda boshqa sog'lom bolalar bilan birgalikda tahsil olish, bunday muhitda ulg'ayishga moslashgan holatda chiqadi.

Keyingi o'quv yilidan boshlab alohida ta'limga ehtiyojmand bolalarning 24 foizi, 2025-yilgacha esa 40 foizi odatiy maktablarga jalb qilinishi kutilmoqda. Lekin bu ta'lim tizimi hali O'zbekistonlik imkoniyati cheklangan bolalar, ularning ota-onalari hamda ustozlari uchun yangi muhit, yamgi bosqich bo'lgani uchun ham xavotirlar mavjud. Imkoniyati cheklangan har bir bolaning ta'lim va tarbiyasi bilan shug'ullanish alohida e'tibor talab etadi. Lekin statistikaga ko'ra 2020-yilning o'zida O'zbekistonda ko'plab umumta'lim maktablarida 13 ming nafarga yaqin nogironligi bo'lgan o'quvchilar inklyuziv ta'lim bilan qamrab olingan.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim tizimini takomillashtirish va sifatini oshirish muhim ijtimoiy vazifa hisoblanadi. Inklyuziv ta'limni rivojlantirish, pedagoglarning malakasini oshirish hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali ushbu yo'nalishda ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vygotskiy L.S. Defektologiya asoslari. — Moskva, 2003.
2. UNESCO. Inclusive Education Guide. — Paris, 2017.
3. United Nations. Convention on the Rights of Persons with Disabilities, 2006.
4. Jumaniyazova Z.A., Ko'zi ojiz bolalarni oilaviy-qo'shnichilik munosabatlariga tayyorlash – pedagogikaning zamonaviy muammosi sifatida//2024 - yil Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali https://lib.cspu.uz/index.php?newsid=12197
5. QodirovaF.U., Jumaniyazova Z.A., Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika//"Zebo Prints" nashriyot. (O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025 yil 28 noyabrdagi 6918-sonli ma'lumotnomasi). ISBN 978-9910-14-037-2.
6. Jumaniyazova Z.A., Oilaviy-qo'shnichilik munosabatlarda tarbiyaviy ishlar tizimini rivojlantirish// UO'K 37.035.6(063) KBK 74.005.22 Y 66 Monografiya // Chirchiq: ChDPU nashriyoti, 2025.
7. https://yuz.uz/uz
8. www.norma.uz